
AHOLI MUROJAATLARI IJOBIY HAL ETILMOQDA

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz

Odamlarni rozi qilish bugun davlatimiz siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi. Xalqimizni tashvishga solib kelayotgan muammolariga yechim topilib, yurtdoshlarimizning farovon turmush kechirishi uchun turli hududlarida sayyor qabullar o'tkazilayotgani inson qadrini nechog'lik yuksakligidan dalolat beradi. Jumladan tuman hokimi qabullarda murojaat qilayotgan fuqarolar murojaatlari yuzasidan joylarga borib o'r ganib muammolarini ijobiy hal etmoqda. Masalan, 11 avgust kuni tuman hokimi qabuliga kelgan Xuramobod MFY yashovchi fuqaro Muharamoy Rasulova uy-joyini ta'mirlatib berish bo'yicha murojaat qilgan edi. Ushbu murojaat yuzasidan tuman hokimi o'rnbosari va mutassadidar Muharamoy Rasulova xonadoniga borib yashash sharoiti bilan tanishdilar. Fuqaroning yashash sharoiti oilaviy ahvoli o'r ganilgach, fuqaroning uy-joyini ta'mirlab berish uchun qurilish materiallari yetkazib berildi.

2022-08-15 14:39:20